



PALMIRA YOXUD TADMOR YAQIN SHARQ G'AROYIBOTLARI TARIXI

Baxtiyorjon G'aniboyev

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. SHMT dariy-ingiliz guruhi talabasi

Ahmadjonov N

Ilmiy rahbar:

Annonatsiya: *Yaqin sharqdagi Palmira shahining o'z davridagi rivoji qonli va shonli tarixi savdo yo'lidagi raqobat. G'arb va sharq orasidagi muvozanat*

Kalit So'zlari: *Tadmur, Palmira, Amoreylar, Efka bulog'I, Kappadokiya, Pliniy, Tig'latpalasar I, Azida*

PALMIRA- Suriyaning shimoliy sharqiy qismidagi qadimgi shahar (hozirgi Tadmor shahri yaqinida). Karvon savdosi va hunarmandchilikning yirik markazi. Milodiy 1-3 asrlarda ancha rivojlangan .

Arxeologik qazishmalar natijasida antik shaharning rejali qurilgan ko'chalari, ibodatxona, qabriston, haykallaklari va mozaika, naqshlar topilgan.

Palmira tarixi uzoq o'tmishga bori taqaladi Nabotiyalar va umuman shimoliy arablar haqidagi hikoyalar yana boshqa bir qadimgi arab davlati bilan bog'lanib ketadi.

U ham bo'lsa Damashqdan sharqroqda vujudga kelgan arab manbalarida Tadmur, grek-lotin manbalarida esa Palmira, Palmerina nomlari bilan mashhur bo'lgan davlatdir. XX asrning 50-60 yillarida polyak va fransuz arxeologlarining Palmirada olib borilgan ishlari bu shahar qulay bir voxada Efka bulog'I atrofida miloddan avvalgi III ming yillikning oxirida paydo bo'lganligini ko'rsatadi. Ularning fikricha, shaharning asoschilari

Amoreylardir. Kappadokiya (Kichik Osiyo) lavxalaridan birida palmiralik bir shaxs zikr qilinishiga qaraganda mil.avv II ming yillikning boshlaridayoq Palmira Qora dengiz sohili bilan savdo aloqalariga ega bo'lgan.

Mari shahridagi akkad yozuvlarida aytilishicha, Suriya dashtida yashovchi ko'chmanchi qabilalar Palmiraga qarshi hujum qilganlar, ammo shahar himoyachilari bu hujumni daf qilganlar.





Emar (hozirgi Meskene-Evfratning o`rta qsmida joylashgan)shahridan arxeologik qazishmalar paytida topilan mixxat yozuviga ko`ra millodan avvalgi II ming yillikning o`rtalarida Emar va Palmira o`rtasida aloqalar mavjud bo`lgan.Miloddan avvalgi XVI-XII asrlarda shimoliy Suriya va Mesopotamiya oromiy qabilalarining ko`chishi yuz bergan.Ular Palmirani o`zlariga markaz qilib olgan, ko`rinadilar.

Ba`zi mutaxassislarning fikricha,Tig`latpalasar I (mil.avv 1100 y) ga tegisli yozuvda u bosib olgan yerlar qatorida zikr qilinadi.

Grek-lotin tillarida shaharning „PALMIRA” deyilishi haqida boshqa bir tasdiqlamagan ma`lumot bor .Go`yo bu yerlani buyuk Iskandar bosib olganida uni palmazor bog`lari yoqib qolgani uchun shu nomni berishgan.

Palmira haqidagi birinchi haqqoniy ma`lumot ma`lumotni antik muallif Pliniy beradi .Nabotiyalar poytaxti-Petra qulagach (milodiy -106 yil) Palmira birinchi darajali shaharga aylandi va diniy markazga aylandi.Milodiy 130 yili bu shaharni Rim imperatori Adrian (117-137) ziyorat qildi.Uning sharafiga birmuddat Adriana Palmirasi yoki Adrianpol deb ataldi.Bu haqida haqda 137-yili bitilgan yozuvda ketirilgan.Unda shahar idora usuli haqida ham ko`pgina ma`lumotlar berilgan. Qonun chiqavvhi hokimiyat oqsaqollar kengashi – Senat qo`lida bo`lgan

Milodiy 226 yili Eronda Sosoniylar davlatiga asos solinganligi Palmira uchun kata ahamiyat kasb etadi,lekin endi Palmira Eron va Rim orasida ko`prik vazifasini bajaradi.



Palmiraning tarixi yorqin sahifalarda zikr qilingan Azina II nomi bilan bog`lidir .

U shaharga bosh bo`lgucha karvonboshi bo`lgan ,qo`shin qo`mondoni ,258 yilga tegishli bevosita AZINA bag`ishlagan matnda VALERIANNING KOSULYARI deb berilgan.Bu ham shaharning o`z vaqtidagi qudratini bildiadi.

Yuqorida keltirilgandek bu shaharda ko`plab ibodatxonalar bo`lgan va ularda har bir xudosa qurbonlik keltirgan.



Quyosh xudosi (Sames va Shamash) boʻlgan va unga atab qurilgan ibodatxoah qoldiqlari bizgacha kelgan.OY xudosi IDJE BAAL deb atalgan .Xotin xudolardan eng mashhuri al-LOT edi.BAAL SHMIN osmon hukmdori deb oʻylashgan .Yana bir xudo boʻlib uni may ichmaydiganlar sigʻinganlar bu xudo SHIA deb atalgan uni yaxshilik xudosi deb oʻylashganlar.Maʼlumotlarda 22 ta xudosi boʻlganligi toʻgʻrisida bor.

Palmira shahri oʻzida koʻplab moʻjzalarni yashirib yotan ulkan xazinadir.

Palmira sanʼati va meʼmorchiligida bir qancha sivilizatsiyalar taʼsir koʻrsatgan boʻlib,mahaliy anʼanalar va forslar va yunon rim uslublari uygʻunlashgan. U Fors,Hindiston, va Xitoyni Rim imperiyasi bilan bogʻlaydigan savdo yoʻlidagi shahar sifatida tobora oʻsib bordi .Uzunligi 1100 metr boʻlgan ulkan,ustunli koʻcha shaharning monumental qismini tashkil etadi ,u ikkinchi darajali ustunlar kesishgan koʻchalar bilan birga asosiy jamoat yodgorliklarini jumladan L Diokletian lageri va teatr, ibodatxonalarini bogʻlagan maxsus birlikdir.Dafn haykallarini noyob namunalarini oʻz ichiga olgan meʼmoriy bezak yunon-rim sanʼati shakllarini mahalliy elementlarini va fors taʼsiri bilan kuchli oʻziga xos uslubda birlashtirilgan.

Shahar devorlarining tashqarisida Rim suv kanali qoldiqlar va ulkan nekropollar mavjud .Palmira xarobalarining ulugʻvorligini tan olish kerak chunki klassik arxitekturani uslublari va shahar dizaynining keying tiklanishiga katta hissa qoʻshgani fikrimiz dalilidir. Markazda yopiq yon yoʻlaklari bilan ochilgan katta monumental ustunli koʻcha va yirik jamoat binolari bilan bir xil dizayndagi qoʻshimcha koʻchalar Palmiraning kengayish choʻqqisida arxitektura va shahar tartibining ajoyib tasvirini tashkil etadi.Buyuk Baal ibodatxonsi milodiy 1-asrning sharqdagi eng muhim diniy binolaridan biri hisoblanadi va noyob dizaynga ega .

Buyuk maʼbaddan shaharga yaqinlashadigan monumental ark yoʻlining oʻyilgan haykaltaroshligi Palmira sanʼatining ajoyib namunasi.Qabrlar vodiysi deb nomlanuvchi hududda shahar devorlari tashqarsida joylashgan katta hajmdagi dafn yodgorliklari oʻziga xos bezak va qurilish usullarini namoyish etadi.

Barcha asosiy atributlar,jumladan asosiy ustunli koʻcha,yirik jamoat binolari va dafn marosimi yodgorliklari chegarada joylashgan. Minora qabrlari va qalʼa kichik zilzilalar uchun himoyasizdir. Bu joy milliy yodgorlik sifatida belgilangan va hozirda 1999 yilda oʻzgaririlgan 222- sonli qaror bilan muhfaza qilinadi ammo bu shahar xarobalari bufer zona 2007 yilda tashkil etilgan,afsuski hali jahon merosi qoʻmitasiga taqdim etilmagan.

Uzoq oʻtmish tarixini bir qismi boʻlgan Palmira uzoq yoʻlni bosib oʻtdi uning shonli va hatok qonli kunlari ham boʻldi ammo bu shahar matonatni buka olmadı u hamisha barhayotdir.Palmiraning qulashi yana savdo yoʻlining janubga koʻchishiga sabab boʻldi Busra va Nabotiy larning boshqa shaharlari Palmirani oʻrini bosdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

- 1) Oʻzbekiston milliy eskilopediyasi T -2000 yil
- 2) A. Hasanovning Qadimgi Arabiston va ilk islom Johiliya asri T-2001 yil
- 3) UNESCO jahon madaniy merosi sayti.